

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14207021>

**Mamaxanova Zebuniso Obidovna**

*Namangan to'qimachilik sanoati instituti asisenti*

**Zoxidjonova Moxlaroyim Shermatjon qizi talaba**

**Mamasoliyeva Rayxona Anvarjon qizi talaba**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola shotlandka matosining (tartan) kostyum dizaynidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Shotlandka matosi nafaqat estetik ko'rinishi, balki o'zining boy tarixi va madaniy ramziyati bilan ham ajralib turadi. Maqolada matoning madaniy va tarixiy ahamiyati, estetik xususiyatlari, dizayndagi universalligi va modadagi trendlari yoritib berilgan. Shotlandka matosi o'zining geometrik naqshlari va rangbarangligi bilan zamonaviy va klassik uslublarni uyg'unlashtiradi. Shuningdek, maqolada ushbu matoning kilt, palto, shim, yubka va aksessuarlar kabi turli kiyim turlarida qo'llanilishi ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** moda klit, tartan, sporran, , arisaid, harris tweed,

Shotland liboslari, xususan, tartan matolari asosida yaratilgan kiyimlar zamonaviy modada o'z o'rnini topib, boy tarixiy meros va innovatsion dizaynlar uyg'unligini aks ettirmoqda. An'anaviy shotland kiyimlari, ayniqsa, kilt, plash va tartan naqshlari bilan mashhur bo'lib, bugungi kunda nafaqat Shotlandiyada, balki xalqaro moda sahnalarida ham dolzarbdir. Bu liboslar nafaqat estetik jozibaga ega, balki tarixiy ahamiyatga ham ega. Shotland kiyim-kechaklarining ajralmas qismi tartan (tartan) gazlamasi bo'lib, bu naqsh milliy g'urur va oilaviy merosni ifodalaydi.

**Shotland Liboslarining Tarixiy Asoslari.** Shotland liboslarining tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Shotland tartan matosi avval klanlarning identifikatori sifatida ishlatilgan. Har bir klanning o'ziga xos ranglari va naqshlari bo'lib, bu kiyimlar nafaqat kundalik ehtiyojni, balki ijtimoiy mavqeni ham belgilab bergan. Kilt – erkaklar uchun beldan tizzagacha o'raladigan libos – milliy an'anuning eng yorqin namunasi sifatida tanilgan. Tarix davomida shotland kiyimlari amaliy jihatdan oddiy bo'lsa-da, ramziy ma'nosi va estetik jozibasi bilan ajralib turgan. Bu liboslar nafaqat milliy o'zlikni ifodalagan, balki tabiat bilan uyg'unlikni ham aks ettirgan. Shotland erkaklarining kiyimiga qarab uning qaysi tabaqaga mansubligini aniqlash mumkinligi haqida juda kam odamlar biladi. Kiltning rangi, tikilishi va chiziqlarining soni shotlandlarning barcha sirlarini ochib beradi. Masalan, kambag'al va uy xizmatchilari bir rangdagi yubka kiygan, fermerlar 2 xil, ofitserlar 3 xil, harbiy qo'mondonlar 5 xil, yozuvchi va shoirlar esa 6 xil rangdan iboratlilarini kiygan. Rahbarlarga 7 xil rangli yubka kiyishga ruxsat berilgan. Hozirgi kunda kilt uchun, taxminan, 700 ga yaqin chiziqlar

to'plami mavjud. Kilt tabiiy ranglar bilan bo'yaladi. Masalan, maymunjondan binafsharang olinadi. Kilt tikiladigan mato tabiiy jundan tayyorlanadi – u tartan deb nomlanadi.



### 1-rasm. Klit erkaklar kiyimi va sporran

**Sporran:** Kilt bilan birga taqiladigan, charm yoki junli xaltacha bo'lib, u libosning funksional qismi hisoblanadi.



**Ghillie brogue poyabzali:** Kilt bilan birga kiyiladigan, an'anaviy ravishda bog'lamli va teshikli charm tuflilar.

Ayollar uchun **Arisaid:** Tartan naqshli keng shol yoki pardal bo'lib, ayollar uni yelkalariga tashlab yurishgan.



### 2-rasm. Arsaid



**3-rasm.** Kuyov libosi

**Kuyov libosi:** Shotlandiyaliklar to'uda ham kilt kiyib, oilaning tartan naqshini namoyish qilishadi.



**4-rasm.** Qirollik oilasining tartani.

Zamonaviy va harbiy uslubda mashhur tartan naqshi.

### Tartan Gazlamasi

**Tartan** - rangli chiziqlar kombinatsiyasidan iborat to'qima naqsh bo'lib, asosan jun matodan tayyorlanadi. Bu gazlama turli klan va oilalarni farqlash uchun ishlataligani. Hozirda tartan turli rang va uslublarda ishlab chiqariladi, shu sababli u nafaqat milliy liboslar uchun, balki moda sanoatida ham keng qo'llaniladi. Har bir klanning o'ziga xos rang va naqshi mavjud. Shotlandiyada faqat tartan emas, boshqa gazlamalar ham mashhur. Quyida eng ko'p ishlatiladigan gazlamalar:

**Harris Tweed:** Shotlandiyaning G'arbiy Orkdan kelib chiqqan qo'lda to'qilgan jun mato. Bu gazlama yuqori sifatli, issiqlikni saqlash xususiyati bilan mashhur.



5-rasm.tartan naqshli mato namunalari Harris Tweed

Cashmere

Linen (Zig'ir)

**Cashmir:** Shotlandiyada nafaqat qo'y junidan, balki kashmir echkilarining yumshoq junidan ham foydalaniladi. Yumshoqligi va nafisligi bilan ajralib turadi.

**Linen (Zig'ir):** Shotlandiyada qadimdan ishlatiladigan gazlama. Zig'ir matosi yengil va nafas oluvchi bo'lib, yozgi kiyimlar uchun mos.

**Zamonaviy Modada Shotland Elementlari.** Zamonaviy moda dizaynerlari shotland liboslaridan ilhomlanib, ularni yangi ko'rinishlarda taqdim etmoqda. Bugungi kundagi dizaynlarda tartan naqshlari ko'plab kiyim va aksessuarlarda uchramoqda:

- ❖ **Shimlar va yubkalar:** Tartan naqshlari nafaqat rasmiy liboslarda, balki streetwear uslubida ham keng qo'llaniladi.
- ❖ **Palto va plashlar:** Geometrik naqshlar iliq matolarda nafis ko'rinish beradi, bu kuz va qish kolleksiylarida ayniqsa mashhurdir.
- ❖ **Aksessuarlar:** Sharflar, galstuklar, shlyapalar va sumkalar kabi buyumlar tartan naqshlarini jozibador qilishda muhim o'rinn tutadi.

Shotland liboslari rang-barangligi va universalligi bilan turli modalar yo'nalishlarida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Misol uchun, Vivienne Westwood, Alexander Makkuiin kabi dizaynerlar tartanni o'z kolleksiylarida ishlatib, shotland madaniyatini global miqyosda tanitgan.



**6-rasm.** Alexander Makkuiin kolleksiyasidan namunalar.

### Shotlandiyadagi Milliy Tadbirlar va Liboslar

Shotlandiyada milliy festivallar va to'ylar an'anaviy liboslarsiz o'tmaydi. Har yili o'tkaziladigan Highland Games tadbirida erkaklar kilt kiyib, sport musobaqalarida ishtirok etadilar. Shuningdek, Burns Night bayramida ham milliy liboslar kiyiladi, va bu tadbirda Shotland shoirlari ijodidan she'rlar o'qiladi.

### Shotlandiyadagi Milliy Tadbirlar va Liboslar

Shotlandiyada milliy festivallar va to'ylar an'anaviy liboslarsiz o'tmaydi. Har yili o'tkaziladigan Highland Games tadbirida erkaklar kilt kiyib, sport musobaqalarida ishtirok etadilar. Shuningdek, Burns Night bayramida ham milliy liboslar kiyiladi, va bu tadbirda Shotland shoirlari ijodidan she'rlar o'qiladi.

### XULOSA

Shotlandiya liboslari va gazlamalari, xususan, tartan va Harris tweed, nafaqat madaniyatning ajralmas qismi, balki global moda sanoatining ham muhim elementi hisoblanadi. An'analarni hurmat qilish bilan birga zamonaviylikni ham inkor qilmaydigan Shotlandiya kiyimlari bugungi kunda ham mashhurligini yo'qotmagan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Buchanan, R. (2005). *The Story of Tartan: The Scottish Cloth of Heritage*. London: Thames & Hudson.
2. Martin, P., & McClintock, G. (1989). *The Art of Tartan*. Edinburgh: Mainstream Publishing.
3. Westwood, V. (2013). *Tartan in Contemporary Fashion: Traditional Meets Modern*. New York: Fashion Institute Press.
4. Scottish Tartans Authority (STA). (n.d.). *Tartans and Their Historical Significance*. Retrieved from